

**YOSHLARNING TA'LIM TARBIYASIDA TASVIRIY SAN'ATNING
O'RNI**

Meliqo'ziyeva Sarvinoz Odiljon qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Rangtasvir (dastgohli) ta'lism yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda yurtimizda ta'lism tarbiya shuningdek, tasviriy san'atga berilayotgan e'tibor, amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so'z boradi. Tasviriy san'atni yoshlarning ta'lism tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Islohotlar, tasviriy san'at, musavvir, ta'lism, tarbiya.

**РОЛЬ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ОБРАЗОВАНИИ
МОЛОДЕЖИ**

Аннотация. В статье говорится о реформах, реализуемых сегодня в нашей стране, а также о внимании, уделяемом изобразительному искусству. Представлена информация о роли и значении изобразительного искусства в воспитании молодежи.

Ключевые слова: Реформы, изобразительное искусство, художник, образование, воспитание.

THE ROLE OF FINE ARTS IN YOUTH EDUCATION

Annotation. The article talks about the reforms being implemented today in our country, as well as the attention paid to the fine arts. Information is presented on the role and importance of fine arts in the education of youth.

Key words: Reforms, fine arts, artist, education, upbringing.

O'zbekiston Respublikasining istiqlolga erishishi halqimizning tarixiy qadriyatlari, ma'naviy merosi xalq pedagogikasi an'analarini qayta tiklashga va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga katta yo'l

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

*ochib berdi. Ayniqsa, asriy an'analarga ega bo'lgan Tasviriy san'at turlariga o'quvchi yoshlarni jalg etish kata tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir. "Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish lozim"*¹.

Mamlakatni barcha sohalarini rivojlantirishda eng avvalo yoshlarni ta'lim tarbiyasi eng muhim o'rinda turadi. Yurtboshimiz ham biz yoshlarning bilim olishimiz uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqdalar. "Agar mendan sizni nima qiyinaydi?" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman degan edi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. *Zero boshqa sohalar bilan hamohang tarzda ilm va san'at sohalarida ham tub o'zgarishlar davri kechmoqda. Bu o'zgarishlar yosh avlodda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyatda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishni ham taqozo etadi.*

Talabalarni ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga molik bo'lgan bu tadbirni amalga oshirishga ko'p yillar davomida milliy boylik bo'lib kelgan xalqimizning madaniy va maishiy hayotga keng tatbiq etilgan go'zal xunarlaridan biri tasviriy san'atni o'rgatish va u soha bo'yicha bo'lg'usi tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash muammosi ham hozirgi kunda juda katta ijtimoiy pedagogik ahamiyatga egadir.

Respublikamizning keljakda buyuk mamlakatga aylanishi, jaxonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va manaviyatining roli beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san'atning ham o'z o'rni bor. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atda ham katta o'zarishlar bo'lmoqda. Musavvir so'zsiz, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashlari kerak. Musavvir o'zi qalam va bo'yoqlar bilan

¹ Sh. Mirziyoyev 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofiginini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda yosh avlod tarbiyasi haqida so'zlagan nutqi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

rangda ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'lish bilan birga, bu sohadagi bilimlarini shogirdlariga ham yetkaza olishi zarur.

Tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi va ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Talabalar suratlarda chizilgan tarixiy va zamonaviy voqealarni, personajlarning kechinma va xarakatlarini, shuningdek tabiat go'zalliklarini chuqur idrok etadilar.

Mustaqilligimiz sharofati bilan O'zbekistonda milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga bo'lgan e'tiborni ortib borishi natijasida O'zbekiston Badiiy Akademiyasining tashkil etildi. 90 yillardan keyingi O'zbekiston tasviriy san'ati olamida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Erkin yechimdag'i milliy ruxni o'zida ifodlagan ko'plab asarlar yaratildi. Bu davrda ijod qilgan rassomlardan Javlon Umarbekov, Alisher Mirzaev, Bahodir Jalolov, Sa'dulla Abdullaev, Fayzulla Axmadaliev, Sergey Alibekov, Akmal Ikromjonov, Rustam Xudoyberganov, Akmal Nur, Bobur Ismoilov, Alisher Aliqulov kabi qator rassomlar ijodida ko'rishimiz mumkin. Ushbu rassomlar ijodida tarixni qayta tiklash bilan birga zamonaviy echimdag'i asarlarini yaratish davr talabi edi. Rassomlar tinimsiz izlanishlari natijasi o'laroq ko'plab badiiy qiymatga ega betakror asarlar yaraldi.

Ranglar orqali inson xissiyotlarini tasvirlar ekanman yoshlarda ertangi xayot uchun intilish, doimiy xarakat va keksalarimizning nuroniy yuzlarida hozirgi baxtiyor kunlarimiz shukronasini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonning bugungi olib borayotgan siyosatining asosi negizida erkinlik g'oyasi bilan singdirilgan asrlarga talab vaqt o'tishi bilan ortib bormoqda, bu esa rassomlar ijodiga alohida e'tiborni ortishidan dalolat beradi.

O'zbekiston zamonaviy rangtasvir san'atining asosiy tamoillari uslublarning keng ko'lamliligi hamda yuqori va chuqur ijrochilik mahorati, obrazlar mazmundorligini saqlagan holda, realistik an'analardan tortib, avangardlik yo'lidagi izlanishlargacha namoyon bo'ladi. Realistik an'analarni saqlagan xolda yaratilgan xar biri inson qiyofasi o'ziga yarasha bir olam va bir dunyodir.

Ma'naviy merosimizga asoslangan milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, uyg'un holda saqlab qolish, rivojlantirish hamda kelgusi avlodlarga yetkazib

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

berish asosiy vazifaga aylangan. Ma'naviy meros-yoshlarda o'zlikni va o'tmishdan faxrlanish tuyg'ularini shakllantiradi. Buning yaqqol ne-ne daholarni, qahramonlarni, chinakam millatsevar, vatanparvarlarni, bir so'z bilan aytganda, dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan munavvar zotlarni kamolga yetkazgan xalqimizning yaqin o'tmishida ko'rishimiz mumkin. Buyuk, o'lmas qadriyatlarning yaratuvchisi, ijodkori bo'lgan, ayni bir paytda, uni avdoddan-avlodga gard yuqtirmay, mo'tabar qilib etkazib kelayotgan xalqimiz, nihoyat uzoq davom etgan istibdod zanjiridan qutildi. Eng muhimi, asrlar mobaynida shakllangan, sayqallangan, milliy qadriyatlarga bugungi kunda egalik qilmoqdamiz.

Yuqoridagilarni barchasini umumlashtirgan holda, yurtimizda tasviriy san'atga berilayotgan e'tiborni, amalga oshirilayotgan islohatlarni e'tirof etishimiz mumkin. Tasviriy san'atning har doim kishilarga zavq ulashish va estetik didini oshirishdan tashqari, tarbiyaviy ahamiyati ham mavjud. Shu tufayli tasviriy san'atning barcha turlarida rassomlarga turki vazifasini o'tovchi tadbirlarni amalga oshirish, tanlovlardan tashkil etish, yosh ijodkorlar orasida ushbu mavzuni targ'ibotini kuchaytirish lozimligi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh. Mirziyoyev 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda yosh avlod tarbiyasi haqida so'zlagan nutqi.
2. Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan islohotlar va bu yo'nalishda bajarilayotgan dolzarb vazifalar natijalariga bag'ishlangan videoselektor
3. Abdullayev N. O'zbekiston san'ati tarixi. – T.: O'zbekiston faylasuflar ilmiy jamiyati, 2007 y. 200 bet
4. T.Maxmudov "XX asr san'atida realizm" San'at jurnali 1999 y. 24 bet
5. Oydinov N. "Uzbekiston tasviriy san'atidan lavhalar" Uqit. 1997 y. 20 bet
6. Mualliflar jamoasi "O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti. T.: 2006 y.